

**KICHIK GURUHLARDAGI NIZOLI
VAZIYATLARNI BOSHQARISHNING
PSIXOLOGIK ASPEKTLARI**

Normo'minov Shodiyorbek To'ychiboy o'g'li,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
doktoranti

**PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF CONFLICT
MANAGEMENT IN SMALL GROUPS**

Normominov Shodiyorbek Toychiboyevich
Doctoral student of Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
УПРАВЛЕНИЯ КОНФЛИКТАМИ В МАЛЫХ
ГРУППАХ**

Нормуминов Шодиёрбек Туйчибоевич
Докторант Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова



<https://orcid.org/0009-0000-3065-8725>

e-mail:
shodiyorbeknormuminov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nizoli holat tushunchasi, ta'riflari, kichik guruhlardagi nizoli vaziyatlarni boshqarish kabilar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, nizolarni samarali hal qilish va hal qilish uchun zarur bo'lgan asosiy xususiyatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: konflikt, nizo, ziddiyat, nizolarni boshqarish guruh, emotsiya, empatiya, psixologik holat.

Abstract: This article provides information about the concept of a conflict situation, definitions, management of conflict situations in small groups, etc. It also discusses the key characteristics needed for effective conflict resolution and resolution.

Key words: conflict, dispute, conflict, group conflict management, emotion, empathy, psychological state.

Аннотация: В данной статье представлена информация о понятии конфликтной ситуации, определениях, управлении конфликтными ситуациями в малых группах и т.д. В нем также обсуждаются ключевые характеристики, необходимые для эффективного разрешения и урегулирования конфликтов.

Ключевые слова: конфликт, спор, конфликт, управление групповым конфликтом, эмоция, эмпатия, психологическое состояние.

KIRISH. Har bir shaxs hayoti davomida doim kishilar bilan muloqotga kirishadi. Shunday ekan suhbatdoshlarning o'zaro muloqotga kirishi asnosida ular o'rtasida turli vaziyatlar, xususan nizolarning vujudga kelish ehtimoli har doim mavjud bo'ladi. Nizolar inson hayotining ajralmas qismidir. Nizo, ziddiyat, murosasizlik, qarama-qarshilik tabiat va jamiyatda shaxslararo munosabatda har doim mavjud bo'lib uning sabablari turlicha bo'lishi

mumkin. Inson yashash davomida turli xildagi nizolarni, ziddiyatlarni, kelishmovchiliklarni, munosabatlardagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishi bilan o'z maqsadiga erishadi[1].

Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha asosan nizolarning quyidagi turlari ko'p uchraydi:

- shaxslararo nizo,
- shaxs va guruh o'rtasidagi nizo
- guruhlararo nizo.

Umuman hayot nizolarga, ziddiyatlarga to'la. Hech bir jamiyat, uning a'zolari nizoli holatlardan xoli emas. Insonning jamiyatdagi yashash tarzini turli ziddiyatlarsiz tasavvur ham etib bo'lmaydi. Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr ko'rish, har qanday yoshda, har joyda, har qanday vaziyatda to'qnash kelish mumkin. Nizolar uyda, maktabda, ko'chada, o'quvchilar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodim va uning rahbariyati orasida, jamoa a'zolari o'rtasida, guruhlarda sodir bo'lishi mumkin[2].

Jamiyat taraqqiyotining ham barcha bosqichlarida va jabhalarida, shaxslar o'rtasida o'zaro kelishmovchiliklar, shaxslararo munosabatlarda ziddiyat va nizoli vaziyatlar mavjud bo'lib kelgan. Dialektik materializm qonuniyatlariga binoan har qanday rivojlanish va yuksalish asosida qarama-qarshilik va ziddiyat yotadi. Shaxs, jamiyatda taraqqiyotini amalga oshiruvchi asosiy kuch xisoblanadi. Shuning uchun ham nizo va ziddiyat jamiyat rivojlanishini asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Nizoning yuzaga kelishi asosan, muloqot ishtirokchilarining o'zi uchun muhim bo'lgan muammoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish yoki muloqotning keskinlashuv jarayonidir. Nizoning asosi muloqot ishtirokchilarining biri ikkinchisining o'z ehtiyojlarini qondirish, o'z maqsadlariga erishish jarayoniga to'sqinlik qilishi tufayli yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Nizoning kelib chiqishi masalasi bo'yicha psixologlardan Yershov A.A. "Shaxs va jamoa: Jamoadagi shaxslararo nizolarni bartaraf etish", Kichanov I.M. "Ziddiyatlar: yoqlaydiganlar va qarshilar", Smolin G.L. "Ziddiyatlarni tadqiq qilish tamoyillari" kabi tadqiqotlar olib borgan. Bugungi kunda ham maskur masala tadqiqotchilarning e'tiborini tortadigan asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi. Psixologlar V.O.Ageev, A.A.Bodalev, V.I.Juravlev, N.N.Obozov, I.A.Kon, Ya.A.Ansupov, A.I.Shipilov, F.M.Borodkin, A.K.Zaysev, A.G.Zdravomislov va boshqalarning tadqiqotlarida nizoning nazariy asoslari yoritilgan.

Nizoning ijtimoiy psixologiyada tushunilishi, muomalaning buzilishi yoki psixologik jihatdan ichki ruhiy kelishmovchilik ekanligi ham olimlar har sohada har xil tushunishadi. Masalan, G.Kovalev nizoga shunday ta'rif beradi: Nizo insonlar o'rtasida

ijtimoiy va shaxsiy masalalarni yechishda vujudga keladigan holat, lekin har qanday qarshilik bu nizo bo'lavermaydi. Yana ba'zi tadqiqotchilar ta'rifiga ko'ra nizo lotincha «konflikt» so'zidan olingan, «to'qnashish», ya'ni maqsad, qiziqish, nuqtai nazar, fikrlar, kishilarning o'zaro ta'sirlashuvidagi qarama-qarshi yo'nalishlar borasida to'qnashishlaridan iborat ekanligi ta'kidlanadi.

Nizo to'g'risidagi odatiy tasavvurlar ma'lum maxsus tadqiqotlar tomonidan salbiy ahamiyatga ega ekanligi baholanadi.

M.Doych nizolarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib, nizolarni ikki turga ajratadi:

- destruktiv nizo
- produktiv nizo.

Destruttiv nizoni aniqlash kundalik tasavvurlar bilan mos keladi. Aynan bu tipdagi nizo o'zaro ta'sirlashuvda xilma-xillikni va fikrlarning toptalishiga olib keladi. Destruttiv nizo ko'pincha sababga bog'liq bo'lmagan holda balki shaxsning kuchli qo'zg'alishiga, hatto stressga tushishiga olib keladi. Uning uchun o'ziga xos belgilar nizo sodir bo'lishiga qiziquvchilar sonining ortishi, ularning nizoli harakatlari, bir-birlariga nisbatan salbiy holatga egaliklari va bildirilayotgan fikrlarning keskinligi bilan belgilanadi. Boshqa bir belgisi sifatida nizoda suhbatdoshining sifat va xislatlarini, o'zaro ta'sirlashuv vaziyatlarini noto'g'ri idrok etishi va sheriklarga ishonchni o'ta ortib ketish nazarda tutiladi. Bu tipdagi nizolarni hal etish ancha murakkab bo'lib, yagona yo'li ancha qiyinchilik bilan erishiladigan murosaga kelish hisoblanadi. Produktiv nizoni esa muammo va uning yechish yuzasidan nuqtai nazarlardagi tafovutlar va shaxslar o'rtasidagi hamjihatlikning yo'qligini keltirib chiqaradi. Bunday holda nizo muammoni atroflicha tushunishni, suhbatdoshlar motivatsiyasini, boshqa nuqtai nazarlarni himoyalashlarini taqozo etadi.

MUHOKAMA. Demak, nizo so'zini «to'qnashish», ya'ni maqsad, qiziqish, nuqtai nazar, fikrlar, kishilarning o'zaro qarama-qarshi yo'nalishlar borasidagi to'qnashuvlaridan iborat bo'ladi.

Nizolar bir qancha belgilariga ko'ra tasniflanadi:

1. Natijasiga ko'ra: konstruktiv. Bunda munosabatlarning yaxshilanishi, muammoning ikkala tomon uchun ijobiy hal etilishiga olib keladi. Destruttiv - munosabatlarning yomonlashuviga,

muammoning hal etilmasligiga, munosabatlarda muammo yechilmasligiga olib keladi.

2. Davom etish vaqtiga ko'ra: uzoq muddatli – ro'yobga chiqish bosqichi cho'zilib ketgan yani uzoq davom etadigan nizo, qisqa muddatli – ro'yobga chiqish bosqichi uzoq davom etmaydigan, qisqa muddatda hal bo'ladigan nizo.

3. Keskinlik darajasiga ko'ra: norozilik, kelisha olmaslik, munosabatlar yomonlashuvi, qarama-qarshilik, dushmanlik.

4. Faoliyat sohasiga ko'ra: boshqarish sohasidagi, ishlab chiqarish sohasidagi[3, 92].

XULOSA. Muloqotdagi nizolarning oldini olish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- muloqotda tanqid va ayblovni ko'p ishlatmaslik, ko'p noliyvermaslik;
- fikrni qisqaroq gaplarda ifodalash, fikrlarni aniq bayon etish;

- e'tiborli tinglovchi bo'lish, suhbatda sherigini fikrini bo'lmaslik, suhbatdoshga o'z fikrini bildirishi uchun vaqt berish, ma'qullab turish, unga bo'lgan qiziqishni bildirish, suhbatdosh nutqining xususiyatlariga kamroq e'tibor berish, suhbat vaziyatidan chalg'imaslik;

- ovozning imkon qadar samimiy jaranglashini ta'minlash, yumshoq, ma'noli so'zlash;

- suhbatdoshning noverbal hatti-xarakatlarini diqqat bilan kuzatib borish;

- qat'iy fikr bildirishdan saqlanish;
- fikrni bildirishdan oldin u nima haqida ekanligini ma'lum qilish;

- suhbatdosh «tilida» gapirish;
- befoyda bahslarga kirishishdan voz kechish;
- buyruq ohangidan saqlanish;
- «hech qachon» va «har doim» so'zlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish yoki bu so'zlardan umuman foydalanmaslik;

- ijobiy emotsiyalarni saqlab turish, muloqotda ko'proq tabassum qilish.

Nizo ro'y bergach, uni bartaraf etish uchun quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- Vazminlikni saqlab qolishga harakat qilish;
- Nizoning asosiy sababini aniqlashga intilish;
- Shaxsiy sohadagi to'qnashuvga yo'l qo'ymaslik;

- Har bir so'z va iboradan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.

- Suhbatdoshning har bir gapini diqqat bilan tinglash va tahlil.

Nizo bartaraf etilmay munosabatlar butunlay tugallansa, buni faqat pozitsiyalarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi tufayli ro'y bergan hodisa, deb hisoblash lozim. Demak, biz o'zaro muloqotda nizolarning paydo bo'lmasligiga harakat qilishimiz, suhbatdoshimizni to'g'ri tushunishimiz zarur. Shundagina atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqotimiz muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova T.M. Boshqaruv psixologiyasi. - Toshkent, 2000. 65 b.
2. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. - T.: "Yunaks print" 2006. 84 b.
3. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006.-119 b.
4. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как предиктор академической успеваемости. Университетское образование: опыт тысячелетия, проблемы, перспективы развития: тез. докл. II междунар. конгр., Минск: МГЛУ, 2008. - Т. 2. - С. 115 - 116.

